

MULOQOTDAGI MUAMMOLAR. LOGOPEDIYA ILMI.

Salimova Shaxzoda

Uzbekistan State World Languages University
shakhzodasalimova3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqot jarayonida nutqning o'ri, nutq buzilishlarining turlari va ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yuzaga keladigan ijtimoiy, psixologik va ta'limiy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, logopediya ilmining shakllanish tarixi, uning asosiy vazifalari va zamonaviy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Nutq buzilishlarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishda logopediyaning ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nutqiy kamchiliklar bolaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni tuzatishda kompleks yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. muloqot, nutq buzilishi, logopediya, duduqlanish, dizartriya, afaziya, alaliya, bolalar rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv, nutq korreksiyasi

Аннотация. В данной статье рассматривается роль речи в процессе общения, виды речевых нарушений и их влияние на развитие детей. Анализируются социальные, психологические и образовательные проблемы, возникающие у детей с нарушениями речи. Также освещается история становления логопедии, её основные задачи и современные направления развития. Особое внимание уделяется значению логопедии в раннем выявлении и коррекции речевых нарушений. Согласно результатам исследования, речевые нарушения оказывают непосредственное влияние на личностное развитие ребёнка и обосновывается необходимость комплексного подхода к их устранению.

Ключевые слова. общение, речевые нарушения, логопедия, заикание, дизартрия, афазия, алалия, развитие детей, социальная адаптация, речевая коррекция.

Abstract. This article examines the role of speech in communication, types of speech disorders, and their impact on children's development. Social, psychological, and educational problems faced by children with speech impairments are analyzed. The historical development of speech therapy, its main tasks, and modern directions are also presented. Special attention is given to the importance of early identification and correction of speech disorders. According to the results of the study, speech impairments significantly affect a child's personal development, and the necessity of a comprehensive corrective approach is justified.

Key words. communication, speech disorders, speech therapy, stuttering, dysarthria, aphasia, alalia, child development, social adaptation, speech correction.

Muloqot inson hayotida muhim o'rin tutadi. Inson o'z fikrini, his-tuyg'ularini va ehtiyojlarini aynan nutqi orqali ifodalaydi. Shu sababli nutqdagi har qanday buzilish nafaqat til muammosi, balki muloqot qilishdagi jiddiy to'siq hisoblanadi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishidagi kamchiliklar ularning kundalik muloqotiga, jamiyatga moslashuviga hamda o'quv jarayonidagi ishtirokiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Nutq inson uchun asosiy aloqa vositasi bo'lib, uning yetarli darajada shakllanmasligi bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, maktab davrida bunday muammolar o'quvchining fikrini erkin ifodalashi, bilimlarni o'zlashtirishi va boshqalar bilan samarali munosabat o'rnatishida yaqqol seziladi.

Nutqdagi buzilishlar turli ko'rinishlarda uchraydi. Masalan, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish bilan bog'liq kamchiliklar, nutq rivojlanishining kechikishi, dizartriya, rinolaliya yoki duduqlanish kabi holatlar shular jumlasidandir. Bu muammolar faqat nutq apparati faoliyati bilan cheklanib qolmay, balki bolaning ruhiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy aloqalariga ham ta'sir qiladi. Shu sababli nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish logopediya hamda maxsus pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi⁸.

Nutq orqali bola atrof-muhit bilan aloqa qiladi, tajriba orttiradi va o'z fikr hamda hissiyotlarini ifodalaydi. Agar nutq yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, bu jarayon to'liq amalga oshmaydi. Natijada bola muloqot qilishda qiyinchilikka duch keladi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha, nutqida muammosi bo'lgan bolalar o'z fikrlarini aniq va tartibli tarzda bayon qilishda qiynaladilar. Lug'at boyligining kamligi, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olmaslik yoki tovushlarni noto'g'ri aytish muloqot jarayonida tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Buning natijasida bola suhbatdan qochishga, kamroq gapirishga yoki passiv bo'lib qolishga moyil bo'ladi. Bunday kamchiliklar bolaning psixologik holatiga ham ta'sir qiladi. Ya'ni muloqotdagi doimiy qiyinchiliklar o'ziga ishonchni kamaytiradi, tortinchoqlikni kuchaytiradi yoki ba'zi hollarda, salbiy xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, tengdoshlari bilan munosabatda muammolar yuzaga kelganda, bola o'zini jamoadan chetda his qilishi mumkin. Shuningdek, nutqdagi muammolar ta'lim jarayoniga ham bevosita ta'sir qiladi. O'qituvchi bilan samarali muloqot qila olmaslik, topshiriqlarni tushunishda qiyinchiliklar yoki savollarga javob berishda ikkilanib qolish o'quvchining darsdagi faolligini pasaytiradi. Bundan tashqari, nutqiy kamchiliklar o'qish va yozish ko'nikmalarining shakllanishiga ham to'sqinlik qilib, umumiy o'zlashtirish darajasini kamaytiradi. Umuman olganda, nutq buzilishlari bolaning faqat muloqotiga emas, balki uning ijtimoiy, psixologik va ta'limiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bunday muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ishlarni o'z vaqtida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Nutqida nuqsoni mavjud bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Bu masalani o'rganishda logopediya ilmi alohida ahamiyat kasb etadi. Logopediya –nutq buzilishlarini o'rganish, aniqlash, oldini olish va tuzatish bilan shug'ullanuvchi ilmiy-amaliy soha bo'lib, lug'aviy ma'nosi grekchada “logos” - nutq, “peydeo” – tarbiyalayman, o'qitaman so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, tarjimada “nutqni tarbiyalash” degan ma'noni anglatadi⁹.

Rivojlanayotgan bolada nutqni tushunish uni o'rab turgan olam, ijtimoiy muhit va kattalar talaffuz qilgan so'zlarning o'rtasidagi aloqani o'rnatish yo'li orqali rivojlanadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan shaxs psixologiyasini o'rganish asosida o'z nuqsonini ongli qabul qilish va anglash 4 ta darajadan iborat:

⁸ Rayimqulova Gulmira Alimjonovna. Maktab yoshidagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 8-jild 12-son. 13.12.2-25.252-bet

⁹ M.Y. Ayupova. Logopediya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent.2007.

- His qilish darajasi. Nuqsonni sezish, behollik va diskomfort holatni his qilishi.
- Emosional daraja. Bu bosqichda inson o'zida nuqson borligini boshdan kechiradi, atrofdagilar uni ko'rib, qanday fikrga ega bo'lishlarini o'ylaydi.
- Intellektual daraja. Inson nuqsonning og'ir yoki engilligini real baholashga hamda uni davolashga ehtiyoj sezadi. Bu o'z muammolari haqidagi adabiyotlarni o'qish, mutaxassis bilan maslahatlashish va ma'lumotlar to'plash ko'rinishida amalga oshiriladi.
- Motivasion daraja. Bu o'z nuqsoniga bo'lgan munosabat, o'z nuqsonini bartaraf etishga qaratilgan qarorni qabul qilish va jamiyatga, ijtimoiylashuvga yo'naltirilgan muayyan xulqni tanlashdan iborat. Bu o'rinda pedagogning o'rni beqiyosdir¹⁰.

Logoped nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolaning har tomonlama o'rganishi, shaxs xusiyatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'ra olishi kerak. Shu bilan birga doim o'z ustida tinimsiz izlanishi va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini fanda qo'llash hamda amaliyotda unumli foydalanish uchun o'qituvchi tomonidan berilgan motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish hamda samarali qo'llash muhimdir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, respublikamizdagi barcha viloyatlarda alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo'nalishlar bo'yicha jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Butunjahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor, alohida yordamga muhtoj bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topib ketish huquqlariga egadirlar¹¹.

Nutqdagi buzilishlarni bartaraf etish masalalari ilk bor XVII asrda Yevropa davlatlarida, asosan, surdopedagogika doirasidagi ilmiy tadqiqotlarda ko'tarila boshlagan. Keyinchalik, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bu yo'nalish alohida o'rganila boshladi va unga asosan tibbiy nuqtai nazardan yondashildi. Vaqt o'tishi bilan nutq faoliyatining mohiyati haqidagi ilmiy qarashlar kengayib bordi va natijada logopediya sohasining mazmuni tubdan o'zgardi. Unda pedagogik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. XX asrga kelib esa logopediya mustaqil fan sifatida shakllandi, uning maqsadlari, vazifalari, metodlari va boshqa fanlar bilan aloqalari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Hozirgi kunda, logopediya bir necha yo'nalishlarga bo'linadi: maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab yoshidagi bolalar hamda o'smirlar va kattalar logopediyasi.

Logopediyaning asosiy maqsadi — nutqida nuqson mavjud bo'lgan shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, bunday nuqsonlarning oldini olishdir. Ushbu fan nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Chunki u nutq va tilning ijtimoiy mohiyatini, bolaning talaffuzi, lug'at boyligi, grammatik tuzilishi hamda tafakkurining o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Shu bilan birga, logopediya nutq buzilishlarini aniqlash uchun diagnostika metodlarini ishlab chiqadi, ularni tasniflaydi hamda bartaraf etishning samarali usullarini yaratadi. Nutq nuqsonlarining oldini olish, logopedik yordamni to'g'ri tashkil etish ham ushbu fan zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardandir. Bu

¹⁰ S.Y. Shamsiyeva. Ilmiy-nazariy metodik jurnal. ISSN 2992-9024. 2024No9(1)

¹¹ M.U. Xamidova. Maxsus Pedagogika.Toshkent." Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2018

vazifalar logopediyaning nazariy va amaliy yo'nalishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, nutq nuqsonlari turli xil ko'rinishda namoyon bo'lib, ularning har biri insonning psixik rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Masalan, alaliya, afaziya, duduqlanish yoki dizartriya kabi buzilishlar bolaning bilish jarayonini qiyinlashtiradi, muloqot imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa uning kundalik faoliyatida va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Og'ir nutq buzilishlari esa ayniqsa aqliy rivojlanishga, yuqori darajadagi bilish jarayonlariga va shaxsning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada tortinchoqlik, ishonchsizlik, ijtimoiy faollikning pasayishi kabi holatlar yuzaga keladi.

Logopediya o'z faoliyatida boshqa fanlar bilan ham chambarchas aloqada ishlaydi. Jumladan, u anatomiya va fiziologiya, psixologiya, tilshunoslik, psixolingvistika, nevropatologiya, pediatriya kabi sohalarning yutuqlariga tayanadi. Nutq va eshitish a'zolaridagi patologiyalarni o'rganish nafaqat nutq buzilishining sabablarini aniqlash, balki davolash va tuzatish ishlarini samarali tashkil etish imkonini ham beradi. Amaliy jihatdan esa logopedik yordam turli muassasalarda tashkil etilgan. Jumladan, bolalar bog'chalari, maktablar, poliklinikalar va maxsus ta'lim muassasalarida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tizimli ishlar olib boriladi. Ayrim hollarda bunday bolalar uchun maxsus bog'chalar va maktablar faoliyat yuritadi. Bu esa ularning to'liq rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun muhim sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rayimqulova Gulmira Alimjonovna "Maktab yoshidagi nutqida nuqsoni bor bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish". 2025, 252-bet
2. S.Y. Shamsiyeva "Bo'lajak logopedlarning shaxs xususiyatlari va pedagogik mahoratini rivojlantirish" 5-bet
3. Abdurashidova Dilfuza Abdurasul qizi "Surdopedagogika fanining mazmuni, vazifalari va metodlari. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi". 2025, 96-bet.
4. M.Y. Ayupova O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2007. 3-bet.
5. M.U. Xamidova "Maxsus pedagogika" Toshkent. 2018-yil, 6-bet